



Bismillahir Rohmanir Rohiym

«Ey Odam farzandilari, shayton ota-onangizning avratlarini o'zlariga ko'rsatish uchun ustlaridan liboslarini yechib, jannatdan chiqarganidek, sizni ham fitnaga solmasin. Albatta u (ya'nikim, shayton alayhila'na) va uning yordamchilari sizni o'zingiz ko'rmaydigan tomondani ko'rib turadi. Biz, albatta, shaytonlarni iymon keltirmaydiganlarga do'st qilganmiz».

«U (ya'nikim Oллоh) bir guruhni hidoyat qildi. Boshqa guruhga yo'ldan ozish haq bo'ldi. Chunki ular Oллоhni qo'yib, shaytonlarni o'zlariga do'st tutdilar, hamda o'zlarini, albatta, hidoyat topuvchilar deb hisoblaydilar.»

(«A'rof» surasining 27, 30-oyatlaridan ma'no tarjima.)

Xudovando, na qildim turfa yozdim,

Shayotin makri birlan yo'ldan ozdim.

Pushaymonman parishon o'tgan ishdan.

Bahoru tiyra moh yozu qishdin.

(So'fiy Oллоhyorning «Sabotul ojziyn» kitoblaridan.)

Borliq olamlarni yaratish barobarinda bizlarni — odam bolalarini yo'qdan bor qilgan, iymon, ma'rifat, ilmu adab, hikmat bahsh etgan, o'zining vahdati zotini, asmai sifatini bizlarga — qullariga bildirgan Xoliqi dahrga madhu tahsinlarimiz va shukrlarimiz bo'lsin. Rahim va Rahmon habibi, olamlar nuri, olimlar faxri bo'lmish Muhammad mustafo salallohu alayhi va sallamga salotu salom va tahiyyat bo'lsin.

Muhtaram payg'ambar afandimizning aziz avlodlariga, xonadonlari ahliga, din yo'lida yordamchilari, dunyoi oxiratda sodiq yorlari martabasidagi ulug' birodarlariga salovotlar bo'lsin. Va jami anbiyo salovatullohi alayhim va avliyoi kirom ruhlariga vosil bo'lsin va biz miskinlardan rozi va hushnud bo'lsinlar. Insha Alloh, omiyn. Ammo ba'd: Shukrlarimiz bo'lsinkim, necha yillardan beri shaytonga tobe olam ahvolining bayoni bahonasida siz muhtaram kitob muhoblari bilan birgamiz. Sizlardan benihoya minnatdormankim, saxovatingizni ayamaganingiz holda bir ojiz va notavon banda sababi bilan qog'ozga tushirilgan mazkur bitikdagi sahvul-qalamga kechirimli bo'ldingiz, uzrlarimizni e'tiborsiz qoldirmadingiz. Yana bir quvonchimiz shuki, shayton vasvasasiga berilmoqlik, shaytonga qarshi jihodda mag'lub bo'lmoqlik oqibati Siz — azizlarni loqayd qoldirmadi. Siz bilan biz «Falonchi qo'shnim (yoki hamkasbim, yoki qarindoshim) mening dushmanim», de-yishga odatlanganmiz. Men buni bir oz o'zgacharoq tarzda bayon qilgan bo'lardim. Sababki, Odam bolasining Odam bolasiga dushmanlig'i durust emasdur. Odamning yagona dushmani — iblisdur! Iblisning eng zo'r quroli — nafs. Demakki, biz dushmanni atrofimizdan emas, o'z vujudimizdan, o'z ruhimizdan izlamog'imiz joiz. Buyurilmishkim, «la-tazanil xolqa bimizanika, vazzin nafsaka bi mizonil